

# IQTISODIY TAHLILDA FOYDALANILADIGAN AXBOROT MANBALARINING TURLARI

**Xoliqulov A.N.**

SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika"

kafedra dotsenti, i.f.n.

**Ikromov J.**

SamISI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy tahlilning mohiyati va mazmuni, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi zaruriyati hamda uning ahamiyati to'g'risida mualliflar tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, bugungi rivojlangan zamonamizda bozor iqtisodiyotini tizimlashtirishda iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti, ma'lumotlar to'plami, tahlil qilish, iqtisodiy tahlil, axborot tizimlari, mahsulot, xizmat.

## TYPES OF INFORMATION SOURCES USED IN ECONOMIC ANALYSIS

**Xoliqulov A.N.**

PhD, docent of department of

Economic analysis and statistics, SamIES

**Ikromov J.**

Student of SamIES

**Abstract:** In this article, the opinion of the authors is presented on the nature and content of economic analysis, its necessity and importance in the conditions of the market economy. In addition, in today's advanced age, proposals and recommendations have been developed for the information system used in economic analysis in the systematization of the market economy.

**Key words:** market economy, data set, analysis, economic analysis, information systems, product, service.

Iqtisodiy tahlil qilish orqali mamlakatimizda har qanday soha va tarmoq, ob'yekt va boshqa narsalarning holati o'rganiladi. Shuning uchun iqtisodiy tahlilda axborot manbalari turlaridan samarali foydalanish maqsad muvofiq.

**Tahlilning maqsadi.** Tahlilning maqsadi bo'lib, xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarining natijalarini, birinchi navbatda, uning zaif va oqsoq tomonlarini chuqur o'rganib, xo'jalikning iqtisodiyotini ya'nada mustahkamlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarni aniqlash hisoblanadi.

Mavjud imkoniyatlarni aniqlash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'raytirish va ularning sifatini oshirish, tannarx va mehnat sarfini kamaytirish, barcha resurslardan foydalanish darajasini oshirish, oqibatda pirovard natija – foydani ko'paytirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, har bir xo'jalik iqtisodiyotini, qolaversa, mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilning asoslarini o'rganish ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi..

**Tahlilning vazifalari** bo'lib, quyidagilar hisblanadi:

1. Xo'jalikning biznes rejasini tuzish uchun zarur bo'lgan ob'yektiv hisobot ma'lumotlari bilan ta'minlash;

2. Xo'jalikning ta'minot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatlarining natijalarini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha biznes rejaning bajarilish darajasi yoki dinamikasi o'zgarishini o'rganish;

3. Har bir jarayon natijasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda har birining ta'siriga baho berish;

4. Xo'jalikda mavjud bo'lgan tabiiy, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish;

5. Korxonani samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan tahliliy axborot manbalarini yetkazib berish.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:


1. Iqtisodiy ma'lumotlar;

2. Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar;
3. Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar;
4. Tabiiy-ekologik ma'lumotlar;
5. Boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumotlar asosan buxgalteriya hisobi, statistika va tezkor hisob va hisobotlarda o'z aksini topadi. Ushbu axborotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Xaqqoniylik va holisonalik tamoyiliga amal qilish.,
2. Iqtisodiy jarayonlar va hodisalar mazmunini to'liq ob'yektiv yoritish.,
3. Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni ifodalovchi ma'lumotlarni aniq o'lchamda aks ettirish.
4. Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi hamda ulardagi axborotlar bir-birini to'ldirib turushligi.

Iqtisodiy axborotlarni tekshirish usullarini quyidagi chizmadan ko'rish mumkin.



**1-rasm. Iqtisodiy axborotlarni tekshirish usullari**

Mulkdor o'zining mulkini ko'payishidan, ko'proq foyda olishdan manfaatdor. Shuning uchun u xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilib turishni doimiy ravishda boshqaradi. Demak, iqtisodiy tahlilning tashqilotchisi o'zi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilni barcha mutaxassislar o'z sohalari bo'yicha o'z vaqtida samarali olib borishlari kerak. Korxonada bo'yicha boshqaruv tahlili bosh iqtisodchi, moliyaviy tahlil bosh buxgalter rahbarligida tashqil qilinadi. Xo'jalikda rahbarning iqtisodiy ishlar bo'yicha o'rinbosari mavjud bo'lsa, iqtisodiy tahlil uning bevosita rahbarligi ostida tashqil qilinadi.

Iqtisodiy tahlil quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tahlil ob'yektini tanlash va rejasini tuzish;
2. Hisobot va reja ma'lumotlarini yig'ish va tekshirish;
3. Ma'lumotlarni qayta ishlash va taqqoslama holatga keltirish;
4. Ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali o'zgarishini aniqlash va ushbu o'zgarishga omillar ta'sirini hisoblab, baho berish;
5. Tahlil natijalarini umumlashtirish, xulosa chiqarish va takliflar berish.

Iqtisodiy tahlil natijalari tahlilning yakuniy bosqichida umumlashtirilgan holda rasmiylashtiriladi, xulosalar qilinadi va takliflar beriladi. Tahlil xo'jalik faoliyatining natijalarini umumlashtirishda o'zaro bog'liqlik va uslubiy ketma-ketlik saqlangan holda, korxonada biznes-rejasini bajarilishi, tabiiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari hamda tadbirkorlik faoliyatidan foydalanish darajasiga baho beradi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning sabablari, ichki imkoniyatlar va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish bo'yicha takliflar va tavsiyalar beriladi.

Xulosada barcha erishilgan yutuklar bilan bir qatorda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatlariga olib kelganligi ko'rsatiladi. Bularning hammasi ma'lumotnoma (bayonnoma)da o'z aksini topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2023, 212 bet
2. Астахов В.П. «Анализ финансовой устойчивости фирмы (процедуры связанный с банкротством)». М.; «Финансы и статистика» 1996.
3. Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник. М.: Высшее образование, 2005.
4. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Oltaev Sh.S. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma, Samarqand. SamISI, 2022, 84 bet.
5. Xoliqulov A.N, Usmanova D.Q., A.O. Qarshiyev. Tarmoqlar sohasini tartibga solish va raqobat. O'quv qo'llanma. Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 174 bet
6. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)